

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 378.091.31-059.1:330:51

NISHONOV FARXOD MUSAJONOVICH

**IQTISODIYOT YO‘NALISHLARIDA FUNDAMENTAL FANLARNI
O‘QITISHNING INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASINI
LOYIHALASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02-Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar: Xakimova Muxabbat Fayzievna,
pedagogika fanlari doktori, professor

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. IQTISODIYOT YO‘NALISHI TALABALARINING FUNDAMENTAL FANLARINI O‘ZLASHTIRISHIDA INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	3
1.1. Talabalarning fundamental fanlarini o‘zlashtirishida individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashtirishning nazariy asoslari.....	12
1.2. Talabalarga iqtisodiy-matematik usullar va modellar fanini o‘qitishning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashning metodologik asoslari.....	38
1.3. Talabalarning iqtisodiy-matematik usullar va modellar fanini o‘zlashtirishida o‘quv moduli komponentlarini mazmunan rivojlantirish	50
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	62
II BOB. IQTISODIYOT YO‘NALISHI TALABALARINING FUNDAMENTAL FANLARNI O‘ZLASHTIRISHIDA INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASHTIRISH METODIKASI... 	64
2.1. Iqtisodiyot oliy ta’lim muassasalarida talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashning pedagogik shart-sharoitlari.....	64
2.2. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarning iqtisodiy-matematik usullar va modellar fanini o‘zlashtirishida individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashtirish modeli	80
2.3. Talabalarga fundamental fanlarni o‘qitishda individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash metodikasi (“Iqtisodiy-matematik usullar va modellar” fani misolida).....	97
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	113
III BOB. IQTISODIYOT YO‘NALISHI TALABALARIGA FUNDAMENTAL FANLARNI O‘QITISHNING INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASHTIRISH BO‘YICHA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI.....	115
3.1. Talabalarning fundamental fanlarni o‘zlashtirishida individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi	115
3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalari va statistik tahlili	123
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	139
XULOSA.....	140
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	144
ILOVALAR.....	163

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotidagi sifat o'zgarishlariga ko'ra ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va ta'lim bozorida raqobatning chuqurlashib borishi sharoitida fundamental fanlar sifatini oshirish va mehnat bozori talablariga moslashgan kreativ texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish tobora dolzarblashib bormoqda. Shunga ko'ra YUNESKO xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga monand ravishda talabalarning mustaqil tayyorgarligini iqtisodiy jarayonlarni loyihalash asosida rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion shakl va integrativ metodikalarini amaliyotga joriy qilishga asosiy vazifalardan bir sifatida qaralmoqda.

Jahonda oliy ta'lim tizimi va ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar tarkibida fundamental fanlarni o'qitishning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirishni sifat jihatdan yangi nazariy-uslubiy ta'minoti muammolariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, jumladan, quyidagi yo'nalishdagi mavzular bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda: talabalarning matematik modellashtirish, algoritmlash, loyihalash va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning uslubiy ta'minotini takomillashtirish; tizimli, integrativ, kompetentli, faoliyatli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida o'qitishning axborot-didaktik ta'minotini takomillashtirish; iqtisodiyot yo'nalishlarida fundamental fanlarni o'qitishning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish, interfaol ta'lim metodlaridan va iqtisodiy indikatorlardan samarali foydalanish.

Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini xalqaro andozalarga muvofiq oshirish, mehnat bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan kadrlar tayyorlash kabilar tarkibida fanlarni o'qitishning individual ta'lim trayektoriyasini

loyihalashtirishning ilmiy-nazariy, uslubiy va metodik ta'minotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”¹ ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirishda, jumladan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ta'lim berishning individual trayektoriyasini loyihalash asoslarini innovatsion yondashuvlarga ko'ra takomillashtirish, raqobat shiddatli o'sib borayotgan ta'lim xizmatlari bozorida tabaqalashgan ta'lim dasturlarining yangi avlodini ishlab chiqish va fanlarni o'qitishning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ–289-son “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi 128-son “O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024–2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2022. – B. 39.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan R.X. Djurayev, Sh.E. Qurbonov, A.R. Xodjaboyev, U.I. Inoyatov, Z.K. Ismailova, N.A. Muslimov, Q.T. Olimov, Sh.S. Sharipov, M.B. Urazova, D.O. Ximmataliyev, O.A. Qo'ysinov va boshqalar² ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar imkoniyatidan samarali foydalanish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib o'qitish bo'yicha A.A. Abduqodirov, U.Sh. Begimqulov, F.M. Zakirova, J.A. Hamidov, O.X. Turaqulov va boshqalar³ tadqiqot ishlarini olib borishgan.

MDH olimlaridan L.N. Agayeva, Ye.A. Aleksandrova, L.V. Bayborodova, V.I. Bogoslovskiy, S.V. Vorobyova, A.V. Voronsov, A.S. Gayazov, Ye.V. Goncharova, M.A. Grinko, T.A. Jdanko, E.F. Zeyer, N.G. Zvereva, N.F. Ilyina, T.M. Kovaleva, N.A. Labunskaya, R.A. Manesheva, T.V. Mashkova, A.V. Mudrik, V.I. Panov, N.V. Ribalkina, T.A. Timoshina, A.V. Xutorskiy, D.N. Ushakov, Yu.G. Yudina, R.M. Chumicheva, I.S. Yakimanskayalar va boshqalar⁴ uzluksiz ko'p bosqichli ta'lim tizimida talabalarning individual ta'lim

² Djurayev R.X. Talabalar shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishning nazariy asoslari // Ta'lim texnologiyalari va pedagogika. – N., 2021. – S. 41-49, Qurbonov Sh.E. Kompetensiyalarni rivojlantirish va ta'limda loyiha metodlari qo'llanilishi // Zamonaviy ta'lim jarayonlari. – T., 2022. – S. 23-29, Inoyatov U.I. Ta'lim olish jarayonida individual yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlari // Innovatsion pedagogika jurnali. – T., 2021. – S. 54-60, Ismailova Z.K. Kasbiy ta'limning rivojlanish qonuniyatlari bo'yicha izlanishlar // Kasbiy ta'lim tadqiqotlari. – S., 2020. – S. 36-42, Muslimov N.A. Ta'lim jarayonlarida kasbiy tayyorgarlikning ahamiyati // Pedagogik izlanishlar jurnali. – T., 2021. – S. 11-18, Olimov Q.T. Ta'lim tizimida shaxsiy trayektoriyalarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar // Innovatsion ta'lim nazariyalari. – N., 2022. – S. 29-35, Sharipov Sh.S. Kasbiy tayyorgarlik va ta'limda kompetensiyalar rivoji // Kasbiy ta'limda innovatsiyalar. – B., 2021. – S. 47-54, Urazova M.B. Professional ta'lim tizimida kompetensiyalar shakllanishining amaliy jihatlari // Ta'lim jarayoni va innovatsiyalar. – T., 2020. – S. 18-25, Ximmataliyev D. Kompetensiyalar va shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish masalalari // Pedagogika va innovatsion texnologiyalar. – T., 2021. – S. 45-52, Qo'ysinov O.A. Zamonaviy ta'lim jarayonida loyihalashtirish metodologiyasi // Innovatsion yondashuvlar. – S., 2022. – S. 33-40.

³ Abduqodirov A.A. Ta'lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari // Kasbiy ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – T., 2021. – S. 52-59, Begimqulov U.Sh. Kompetensiyalar va loyihalashtirishning metodologik yondashuvlari // Zamonaviy pedagogika tadqiqotlari. – N., 2022. – S. 19-26, Zakirova F.M. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalarining roli // Ta'lim va innovatsiyalar. – F., 2021. – S. 43-50, Hamidov J.A. Professional ta'limning rivojlanish tendensiyalari va muammolari // Pedagogika va ta'lim jarayonlari. – Q., 2020. – S. 61-67, Turaqulov O.X. Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi va uning professional ta'limga tatbiqi // Innovatsion ta'lim strategiyalari. – T., 2022. – S. 74-80.

⁴ Агаева Л.Н., Мухина Н.Б. Из опыта работы по организации профильного обучения в общеобразовательной школе // Инновационные тенденции в системе высшего и среднего образования: Материалы международной заочной научно-методической конференции. Т. 1. – С., 2008. – 205 с., Александрова Е.А. Педагогическое сопровождение старшеклассников в процессе разработки и реализации индивидуальных образовательных траекторий: Дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2006. – 375 с., Байбородова Л.В., Белкина В.В. и др. Образовательные технологии: Учебно-методическое пособие. – Я.: ЯГПУ, 2005; Богословский В.И. Проблемы математика образования в современной школе // Актуальные вопросы при преподавании математики. Т. 1. – Н., 2017; Воробьева В.С. Теоретические основы дифференциации образовательных

trayektoriyalarini loyihalash metodlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan Richard Arum, Melisa Velez, H.Fry, S.Ketteridge, S.Marshall va boshqa tadqiqotchilar⁵ o'z izlanishlarida oliy ta'limda individual ta'limni qo'llash, talabalarni o'qitishda individual ta'lim trayektoriyalaridan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq qilishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-662204329- raqamli "Iqtidorli talabalar bilan ishlash

программ: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – СПб., 1999, Воронцов А.В. Современное образование: от знаниевого к компетентностному подходу. – С.: Региональный социально-психологический центр, 2005. – 82 с.; Гаязов А.С. Индивидуальные траектории образования личности; Гринков М.А. Из опыта проектирования индивидуальной траектории обучения математике в средней школе // Современные подходы к обучению и воспитанию в условиях цифровизации образования: Материалы международной научно-методической конференции; Жданко Т.А., Живоколенцева Т.В., Чупрова О.Ф. Проектирование индивидуальных образовательных маршрутов (ИОМ) студентов в вузе // Magister Dixit. 2014. – № 1 (13). – С. 140-146; Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Индивидуальные образовательные траектории в системе непрерывного образования // Педагогическое образование в России. – Е.: УГПУ, 2014. – № 3. – С. 74-82; Зверева Н.Г. Проектирование индивидуальных образовательных маршрутов студентов педвуза на основе комплексной психолого-педагогической диагностики: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Я., 2007. – 24 с., Ильина Н.Ф. Индивидуальная образовательная программа как средство организации образования педагогов при решении проблем индивидуализации обучения: <http://www.cross-ipk.ru>; Ковалева Т.М. Изучение роли цифровизации в образовательных процессах // Современные подходы к обучению и воспитанию в условиях цифровой трансформации: Материалы международной научно-методической конференции. – Т. 1. – СПб., 2019; Лабунская Н.А. Педагогическое исследование современного студента. – СПб., 1999; Манешева Р.А. Индивидуальные принципы активного обучения при организации текущего контроля знаний студентов // Вестник ТГПУ. Педагогика высшей школы, 2010. – Вып. 2 (92); Машкова Т.В. Выбор студентами колледжа индивидуальной образовательной траектории в системе непрерывного многоуровневого образования: Дис. ... канд. пед. наук. – К., 2006. – 209 с.; Мудрик А.В. Социальная педагогика: Учебник для вузов. – М.: Феникс, 2009. – 224 с.; Панов В.И. Дидактические и психологические основания современных образовательных систем // Дополнительное образование. – М., 2003. – № 6. – С. 3-7; Рыбалкина Н.В. Открытое пространство образования: способы представления и построения // Переход к открытому образовательному пространству: стратегии и инновации управления. – Т., 2003. – С. 24-31, Тимошино Т.А. Новые технологии в обучении математике в условиях цифровизации // Современные образовательные технологии: Материалы международной научно-методической конференции; Хуторский А.В. Технология проектирования индивидуальных образовательных траекторий // Инновации в образовании: Материалы международной научно-методической конференции. – Т. 1. – М., 2015. – 98 с.; Ушаков Д.Н. Применение информатсионных технологий в обучении математике // Цифровизация образования: вызовы и перспективы: Материалы международной научно-практической конференции. – Т. 1. – Е., 2016. – 187 с.; Юдина Ю.Г. Условия становления и содержания индивидуальной образовательной траектории учащихся 5-7 классов основной школы: Учебно-методическое пособие. – К.: КГУ, 2005. – 21 с.; Чумичева Р.М. Цифровые технологии в образовательной среде // Инновации в цифровом образовании: Материалы международной научной конференции. – Т. 1. – СПб., 2019; Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М.: Сентябрь, 2006. – 96 с.

⁵ Arum, R., Roksa, J. (2011). Academically Adrift: Limited Learning on college campuses, Melisa Velez Director for Data services and project operations at Harvard Business School, H.Fry Co-Founder & CEO at Brown Button Estate Sales, Ketteridge, S., Marshall, S., Fry, H. (2002). Oliy ta'limda o'qitish va o'qitish bo'yicha qo'llanma: Akademik amaliyotni kuchaytirish. – London, Marshall, S., Ketteridge, S., Fry, H. (2002). Oliy ta'limda o'qitish va o'rganish bo'yicha qo'llanma: Akademik amaliyotni ishlab chiqarish.

jarayonlariga raqamli transformatsiyani joriy qilish” nomli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan (01.01.2024-31.12.2024).

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyot yo‘nalishlarida fundamental fanlarni o‘qitishning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyot yo‘nalishlarida fundamental fanlarni o‘qitishning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalashtirishning didaktik asoslarini tahlil qilish;

mazkur yo‘nalishda fundamental fanlarni o‘qitishning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

fundamental fanlarni o‘qitishning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalashtirish modelini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

iqtisodiyot yo‘nalishlarida fundamental fanlarni o‘qitishning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti oliy ta‘lim muassasalarining iqtisodiyot yo‘nalishlarida fundamental fanlarni o‘qitishning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalashtirish jarayoni bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Guliston davlat universitetining jami 407 nafar respondentlari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, iqtisodiyot yo‘nalishlarida fundamental fanlarni o‘qitishning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalashtirishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, pedagogik jarayonni modellashtirish, ta‘lim jarayonini loyihalash, kuzatish, tajriba-sinov, suhbat va so‘rovnoma, matematik va statistik qayta ishlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fundamental fanlarni o‘qitishning individual ta‘lim trayektoriyasini loyihalashtirishning didaktik imkoniyatlari motivatsion-qiymatli va talaba

xarakterini ifodalovchi ichki xususiyatlarning adekvat namoyon bo'lishi asosida talaba salohiyatini bosqichma-bosqich realizatsiya qilish jarayonida uning shaxsiy javobgarligini belgilashga ko'ra aniqlashtirilgan;

iqtisodiyot yo'nalishida fundamental fanlarni o'qitishning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish modeli o'quv predmeti va turli xil tuzilmalari materiallarining mazmuniga to'laqonli parallel holda vizual aks ettirilgan materiallardan foydalanish samaradorlikni oshirishi, shunga ko'ra ularni iqtisodiy-matematik usullarning mantiqiy tuzilmasi va vaziyatni modellashtirishda aks ettirilishiga ko'ra takomillashtirilgan;

talabaning kasbiy faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy induvidual xususiyatlarining ustuvorligiga ko'ra iqtisodiyot yo'nalishida fundamental fanlarni o'qitishning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish modelini takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan va mazkur jarayonni iqtisodiy-matematik tarzda tavsiflanishi bo'yicha takliflar asoslangan;

individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish metodikasining samaradorligini o'quv jarayonida talabaning maqsadli segment (m-n, marketing-tadbirkorlik), muammoning huquqiy ta'minoti va tahliliy (axborot-tahliliy) ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan nisbiy yaxlitligini ta'minlashga ko'ra o'quv modullari mazmunini uyg'unlashtirish asosida oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

iqtisodiyot yo'nalishlarida fundamental fanlarni o'qitish jarayonida individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirishning mazmuni, samarali shakllari, metodlari va vositalari takomillashtirilib, amaliyotga joriy etildi;

iqtisodiyot yo'nalishida o'qitiladigan "Iqtisodiy-matematik usullar va modellar" fanining o'quv dasturi, o'quv-metodik majmuasi va o'quv modullari hamda metodik yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;